

SIYOSIY DISKURSNING SIYOSIY LINGVISTIKADAGI NAZARIY TAHLILI

Elbek O'rol o'g'li Ro'ziyev,

TerDU tadqiqotchisi, NIU Umumiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

e-mail: elbek_ruziyev@mail.ru

ORCID: 0009-0008-0410-7020

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785665>

Annotatsiya. Ushbu maqolada siyosiy diskurs uning siyosiy lingvistikadagi xususiyatlari hamda turlari hamda bu boradagi ilmiy tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Diskurs atamasining mazmuni, uning ilk qo'llanilishi hamda bugungi tadqiqotlarda uning turlari masalalari haqida mulohazalar bildirilgan. Lingvistik va ekstralingvistik xususiyatning keng doirasini o'z ichiga olgan diskurs nutq harakatining mahsuli bo'lib, u semantik bir xillik va ma'lum bir kontekstga bog'liqligi bilan ajralib turadi, u janr va mafkuraviy bog'liqlikka ega bo'lib, madaniyatning ma'lum bir qatlami, ijtimoiy hamjamiyat, ma'lum bir tarixiy davr bilan bog'liqdir. Bu jarayonlarning nazariy jihatlarini tadqiq etish muhimdir. Shu bilan birgalikda "diskurs" atamasining mavjud lug'atlarda izohlanishi borasida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: diskurs, siyosiy diskurs, siyosiy lingvistika, Ван Дейк, Шейгел.

Abstract. This article analyzes political discourse, its features and types in political linguistics, as well as scientific research in this area. The content of the term discourse, its early use, and its types in current research are discussed. Discourse, which includes a wide range of linguistic and extralinguistic features, is a product of speech act, is distinguished by semantic uniformity and dependence on a certain context, has genre and ideological connections, and is associated with a certain layer of culture, social community, and a certain historical period. It is important to study the theoretical aspects of these processes. At the same time, information is also provided on the interpretation of the term "discourse" in existing dictionaries.

Key words: discourse, political discourse, political linguistics, Van Deyk, Sheygel.

Аннотация. В данной статье анализируется политический дискурс, его особенности и типы в политической лингвистике, а также в научных исследованиях в этой области. Рассматривается содержание термина «дискурс», его раннее использование и типы в современных исследованиях. Дискурс, включающий широкий спектр лингвистических и экстралингвистических особенностей, является продуктом речевого акта, отличается семантической однородностью и зависимостью от определенного контекста, имеет жанровые и идеологические связи, а также ассоциируется с определенным пластом культуры, социальным сообществом и определенным историческим периодом. Важно изучить теоретические аспекты этих процессов. Одновременно предоставляется информация об интерпретации термина «дискурс» в существующих словарях.

Ключевые слова: дискурс, политический дискурс, политическая лингвистика, Ван Дейк, Шейгал.

Kirish. XX asarning 90-yillaridan boshlab o'zbek tilshunosligida antroposentrik nazariya jarayonlari bo'yicha tadqiqot ishlari boshlandi. N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi va yo'llarini izlab", D.Xudoyberganovanning "Matnning antroposentrik tadqiqi" [1,2] kabi ishlarida zamonaviy lingvistik yo'nalishlarni o'zbek tilshunosligiga olib kirish va qo'llash masalalari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu asosda XXI asr o'zbek tilshunosligida bir qancha yangi fanlar: lingvokulturologiya, psixolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, areal

lingvistika, ontolingvistika fan tarmog‘i sifatida kirib keldi. Jamiyatning demokratlashuvi va ijtimoiy ong hamda tafakkurning taraqqiyoti natijasi jamiyatni boshqaruvchi rahbar shaxslar nutqini ham tadqiq etish dolzarbligini ifodalamoqda. Shu asosda tilshunoslikda yangi soha – siyosiy lingvistika, siyosiy tilshunoslik sohasi yuzaga keladi. Siyosiy lingvistika hozirgi zamon tilshunosligida faol sohalardan biri sifatida rivojlanmoqda. Xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bakalavriat, magistratura dasturlarida “Siyosiy lingvistika” alohida fan sifatida ham o‘rgatilmoqda. Uning fan sifatida obyekt, predmeti ishlab chiqildi. Shuningdek, AQSHning Chikago va Illinoys universitetlarining yuridik fakultetlarida ta‘lim oluvchi har bir talaba 45 fan (nutq o‘rganishga kirish, yozma nutq, ommaviy muomala nutqi, siyosiy nutq, polemika asoslari, sud notiqi kabilardan) dan iborat sikl – “Nutq maktabi” deb nomlangan kursni o‘qishlari lozim [3; -B.32].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Siyosiy lingvistikada asosiy e‘tibor siyosiy til, siyosiy kommunikatsiya va diskurslarning muhim xususiyatlarini tadqiq etishga qaratiladi. Shuningdek, siyosiy lingvistikada mafkuraviy g‘oyalarning siyosiy matnda ifodalanishining eng muhim metodlari, ularning ilmiy mazmuni tahlil etiladi. Siyosiy lingvistika va lingvopolitologiya atamalarini bir ma‘noda qo‘llash holatlari ko‘p uchraydi. Siyosiy tilshunoslikda nafaqat uning asl holatini, balki unga yondosh bo‘lgan jarayonlarni o‘rganishga oid yondashuvlar ham mavjudki, bu xususan, siyosiy metoforani o‘rganish, kognitiv lingvistika doirasida perlokutiv ta‘sir o‘tkazishni belgilash kabilarda ko‘rinadi. Ba‘zan lingvopolitologiya atamasi xuddi shu yo‘nalishga ishora qilish uchun ishlatiladi. Biroq, ayrim tadqiqotchi – olimlar, siyosiy tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarning mazmunan xilma-xilligini inobatga olgan holda, “lingvopolitologiya” atamasini siyosatshunoslik uchun muhimroq bo‘lgan sohalar uchun qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligi ta‘kidlab o‘tadi [4; - c. 29].

Siyosiy lingvistikada “diskurs” tushunchasiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Muloqotning diskurs nazariyasi mustaqil fan sohasi sifatida 1960-yillarning o‘rtalarida shakllana boshladi. Bu davrda olimlarning tilni ajralmas aloqa vositasi sifatida qarashga intilishi matnlarni o‘rganishda o‘z ifodasini topdi. Tilshunoslik asta-sekin shakliy, formal-funksional doiradan chiqib, tilni mazmuniy, yaxlit, izchil o‘rganishi asnosida diskurs atamasi ham faol qo‘llanila boshlandi. Tilshunoslik asta-sekin gapni o‘rganish doirasidan chetga chiqib, keyingi bosqich gaplar zanjiri – to‘liqlik, yaxlitlik, izchillik va hokazo kabi belgilovchi xususiyatlarga ega bo‘lgan matnni tahlil qilishga o‘tdi [5; - c. 32]. “Diskurs” atamasi faqatgina tilshunoslikning obyekt bo‘libgina qolmasdan sotsiologiya, kulturologiya, pedagogika, yurispuridensiya sohalarining ham tadqiq obyekt bo‘lib xizmat qiladi. Diskurs atamasining asl lug‘aviy ma‘nosi lotin tilidan (discursus so‘zidan) kirib kelgan bo‘lib, “harakat“, “aylanish“, “suhbat“, “muloqot“ degan ma‘nolarni anglatadi. “Diskurs” lingvistik termin sifatida birinchi marta 1952-yilda amerikalik olim Z. Harrisning “Discourse analysis” kitobida keltirilgan [6; -B.16]. Diskurs atamasiga lingvistik lug‘atlarda ham turlicha izohlar keltirib o‘tilganini kuzatishimiz mumkin.

Xususan, T.Jerebilo tomonidan yozilgan “Lingvistik terminlar lug‘ati”da diskurs terminiga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Discourse (nemischa diskurs, fransuzcha diskurs, inglizcha discourse) ikki xil ma‘noni ifodlashi belgilangan: 1) asl ma‘no - oqilona fikrlash. 2) Keyin bu atama dialog ma‘nosida qo‘llanila boshlandi [7; -c. 94]. Shuningdek, dunyo tilshunosligida diskurs so‘zi quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

a) yozma matnlarda yoki og‘zaki nutqda qayd etilgan, ma‘lum bir kognitiv va tipologik shartli makonda amalga oshiriladigan o‘ziga xos kommunikativ hodisa;

b) situatsion kontekst bilan uzviy bog‘langan matn.

Nemis tilshunosligining Avstriya maktabida diskurs ma‘lum bir ijtimoiy amaliyotning lisoniy ifodasi, tilning o‘ziga xos tarzda tartiblangan va g‘oyaviy, tarixiy jihatdan shartlangan mentalitetni ifoda etuvchi tizimlashtirilgan qo‘llanishi sifatida belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Ingliz olimlarning asarlarida diskurs atamasining ma‘nosi dastlab izchil matn sifatida berilgan bo‘lsa, undan keyin matnning og‘zaki-so‘zlashuv shakli, dialog, ma‘no jihatdan bir-biriga bog‘langan gaplar guruhi kabi ma‘nolarni ifodalagan. Tilshunos A.Kibrik diskursni og‘zaki nutqni qurish va tushunish jarayonlari sifatida izohlasa, E.Ben-Veniste so‘zlovchi tomonidan ifodalangan nutq, hayotga singib ketgan nutq sifatida ifodalaydi. Golland tilshunosi T.A.van Deyk diskursni bir nechta darajada ko‘rib chiqishni taklif qiladi. U keng ma‘noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma‘noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Ta‘kidlash kerakki, T.A.van Deyk diskurs va matn o‘rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs – aktual aytilgan matn, ya‘ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs – aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo‘llanadigan vaziyatga, matnga va obyektga ham birday talluqlidir. Diskurs – suhbat turidir [8; - c. 372]. Diskurs tadqiqoti usullari orasida T. Van Deyk tomonidan bildirilgan tahlilning quyidagi turlari ahamiyatlidir:

- grammatik (fonologik, sintaktik, leksik va semantik) tahlil;
- nutq va muloqot harakatlarini pragmatik tahlil qilish;
- ritorik tahlil;
- stilistik tahlil
- tuzilmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini (janri va boshqalar) tahlil qilish (hikoya, yangiliklar, parlament bahslari, ma‘ruzalar, reklama matnlari va boshqalar);
- suhbatning konversion tahlili;
- ovozli, vizual material va nutq o‘zaro ta‘sirning boshqa multimodal parametrlarini semiotik tahlil qilish [9: -c.20].

Diskurs til va lingvistik tafakkur jihatlarini bir vaqtda amalga oshiradigan yagona “organizm” sifatida ishlaydi. M. Stubbs diskursni ijtimoiy kontekst doirasida asosiy uchta xususiyatini ajratib ko‘rsatadi: 1) rasmiy ma‘no jihatidan – gapning ustki sathidagi til

birligi; 2) informativ ma'no jihatidan – diskurs ijtimoiy kontekstda ishlatiladigan til bilan bog'liq; 3) shakl jihatdan – so'zlovchilar o'rtasidagi interaktiv nutq, ya'ni dialog. Birinchi va ikkinchi xususiyatlarga ko'ra aytishimiz mumkinki, diskurs ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lgan til birligidir. Diskursni lingvistik matn sifatida o'rgangan tilshunoslardan biri T.M.Nikolayeva esa uni ko'p ma'noli so'z deya ta'riflab, bir nechta ma'nodoshlarini keltirib o'tadi [10; - 896 c.]:

- (a) Dialog;
- (b) matnning og'zaki shakli;
- (c) ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan gaplar yig'indisi;
- (d) og'zaki yoki yozma ravishdagi nutqiy harakat, ish.

Guvohi bo'lganimizdek, diskurs asosan og'zaki yoki yozma ko'rinishda nutqiy jarayonda harakat tarzida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, matn va diskurs tushunchalari bir deb qarash yoki alohida tushunchalar sifatida tushunish ko'pdan buyon tilshunoslarda e'tiborida bo'lib kelayotgan munozarali masaladir. N.D.Arutyunova diskurs va matn alohida lingvistik terminlar ekanligi va diskurs harakatdagi matn bo'lib, o'z ichiga ham madaniy, ham ijtimoiy omillarni qamrab olishini ko'rsatib o'tadi. Diskurs va matn atamalarini farqlagan mashhur lingvistlardan yana biri H.Haberland esa, matn turg'un, tayyor mahsulot sifatida turli joy va turli sharoitda yaratilishi mumkin, diskurs esa aniq joy va vaqtda kechayotgan holat deb hisoblaydi.

N.F.Alefirenkoning yozishicha diskurs lingvistik shakl, bilim va kommunikativ-pragmatik vaziyatning uyg'unlashuvidir. Stavropol nutq maktabining rahbari G.N.Manaenkoning fikricha esa diskurs shunchaki, nutqiy muloqot oqimi emas, balki mafkura subyekting inson hayoti doirasi, o'ziga xos holatlari bilan chegaralangan nutqiy xatti-harakatidir.

Diskurs sotsiolingvistik jihatdan asosan ikkita qismga bo'linadi: so'zlashuv va institutsional diskurs. Bunday bo'linishning asosiy sababi esa, kommunikativ aktning tuzilishi va tashkil topishiga bog'liqdir.

Insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha ijtimoiy faoliyati diskursiv xarakterga ega. Nutqning ijtimoiy mohiyati matn bilan bog'langan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari matnning u yoki bu ko'rinishida namoyon bo'ladi. U aniq sotsiopragmatik matnda amalga oshiriladigan, murakkab maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat sifatida bir tomondan, nutqning tarixiyli bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiyligi bilan, uchinchi tomondan, mafkuraviyligi bilan bog'liq. Ma'lum bir individual diskursning alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi nutqning lingvopragmatik tabiati to'g'risida mulohaza yuritishga imkon beradi [11; -B.131].

“Diskurs” atamasining o'zbek tilida keltirilgan izohlarida unga, “loticha diskurs – muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokama talab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil – isbotli bilim [12; -B.126] yoki so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro suhbat, savolga

yarasha javob berish” [13; -B.9] – deya izohlar keltirilgan. Shuningdek tilshunos olimi D.Xudoyberganova “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da diskurs tushunchasiga “...pragmatik, psixologik, ijtimoiy-madaniy kabi nolisoniy omillar bilan uzviylikda yondashiladigan bog‘lanma matn; voqeaning kechishi nuqtayi nazaridan hamda maqsadli ijtimoiy harakat sifatida, shuningdek, odamlarning o‘zaro munosabati va ularning ongidagi kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan komponent sifatida qaraladigan nutqiy tuzilma” deya izoh keltiradi [14; -B. 21]. G.Toirovaning “Pragmalingvistika” o‘quv lug‘atida pragmalingvistikada diskurs tushunchasining mohiyatini ancha keng yoritib berilgan. Jumladan, muloqot jarayonida so‘zlovchi (diskurs nazariyasida bu kommunikator deb ataladi) tinglovchiga (adresatga) o‘z nutqi yoki muloqot jarayoni orqali o‘zini tanishtirishi hamda diskurs fikrni bayon qilish jarayoni, lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og‘zaki shaklining moddiy voqelanishi, lisoniy va nolisoniy vositalarning birgalikda ishlatilishi hamda uning lingvo-etno-psixo-situasion omillar majmui ekanligi bildirib o‘tilgan. Demak, diskurs tilshunoslikda gap yoki nutqda bog‘langan va kelishilgan oqibat sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda. Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma‘noda qo‘llangan: 1) so‘z muqobili; 2) frazalardan o‘lchami bo‘yicha ortadigan birlik; 3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta’siri; 4) suhbat; 5) nutqda so‘zlovchi pozitsiyasi; 6) lisoniy birliklardan foydalanish; 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi; 8) matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar [15].

Tilshunos Z.Pardayev diskursning subyektiv, ijtimoiy-madaniy, shuningdek, stereotip, presedent (namunali) fikrlar, monolog va dialog ko‘rinishidagi nutqiy faoliyat jarayonini ifodalovchi tushunchalarni qamrab olishini ta’kidlar ekan, diskurs – matnning shakllanish usulidir degan fikrni ilgari surgan holda, diskursning ilmiy atama sifatida sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlariga e’tibor qaratadi [18; - B.26.] Albatta, tilshunos Z.Pardayevning diskurs borasidagi bu mulohazalari zamonaviy lingvistikada diskursni murakkab kommunikativ hodisa sifatida tushunilishi asnosida ifodalangan. Amalda ham diskurs harakatli jarayon hisoblanib, o‘zida pragmatik xususiyatni saqlaydi. Bu xususiyat ko‘rinishlari pragmatik aktlarda namoyon bo‘ladi hamda o‘zgarish xususiyatini o‘zida ifodalaydi.

Diskursning ijtimoiy tabiati yangilikli diskurs, publitsistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelishiga imkon beradi. Siyosiy diskurs shunday matnki, unda siyosiy muloqotning barcha ekstralingvistik tavsiflari pragmatik, sotsiomadaniy, psixologik jihatdan mujassamlashadi [16; -B. 14].

Talqin va izohlarning xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko‘p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha ijtimoiy

faoliyati diskursiv xarakterga ega. Nutqning ijtimoiy mohiyati matn bilan bog'langan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari matnning u yoki bu ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Diskursning tarmoq sohalari orasida siyosiy diskurs ham muhim o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Shu asnoda fikrimizni siyosiy diskurs sohasiga oid mulohazalar bilan davom ettirsak. Siyosiy diskursga oid bir qancha tadqiqotlarda bu tushunchani turli xil tarzda nomlash holatlarini kuzatish mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ushbu atama "siyosiy diskurs" ("политический дискурс"; E.I.Sheygal, A.N.Baranov), "ijtimoiy-siyosiy nutq" ("общественно-политическая речь"; T.V.Yudina), "siyosiy-tashviqot" ("агитационно-политическая речь"; A.P.Chudinov), jamoatchilik fikri tili (язык общественной мысли; P.N.Denesov), siyosiy til (политический язык; O.I. Vorobeva) kabi ta'riflanadi [17; - B.26].

Diskursiv amaliyotning eng muhim elementi siyosiy diskursdir. Siyosiy diskurs har doim siyosiy tizimning muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Siyosiy diskursda vositalar va usullar bilan ifodalangan xalqchilik ruhi kuchli bo'ladi. Bu siyosiy diskursning oldiga qo'ygan maqsadlariga mutanosib ravishda vazifalariga bog'liq bo'ladi. Negaki, xalq ruhiyatiga hamda tiliga mos so'zlar va iboralar auditoriyani o'ziga jalb qila oladi. Siyosiy nutq institutsional aloqa sifatida talqin etilib, shaxsga yo'naltirilgan nutqdan farqli o'laroq, u ma'lum bir professional yo'naltirilgan belgilar tizimidan ya'ni lug'at, frazeologiya va paremiologiyadan foydalanadi.

O'zbek tilshunos olimi A.Pardayev talqinicha, diskurs bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayonidir. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo'lida voqelanishidir [18]. Fikrimizcha, berilgan ta'rif diskursning aniq bir maqsadga ega bo'lishi – uning asosiy xususiyatlaridan biri ekanligini ochib beradi. Diskursga berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda quyidagicha tushunishni lozim topdik: Diskurs ma'lumotlarni olish, uzatish hamda ularni qayta ishlash jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan lisoniy tafakkur faoliyati hisoblanadi. Diskursning tashkil topishi kognitiv jarayon ishtirokchilarining o'ziga xos tuzilishi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, Z.I.Rasulovning fikr-mulohazasiga ko'ra diskurslarda mentalitetning turli jihatlari aks topadi, jamoa lisoniy madaniyatining xususiyatlari turli darajada namoyon bo'ladi. Shu bois, tilshunoslik rivoji uchun diskurs turlarining o'ziga xos belgi ko'rsatkichlari tahlili bilan bir qatorda turli janrdagi diskurslarning o'zaro munosabatini, biridan ikkinchisiga ko'chib o'tish holatlari tavsifi ham muhimdir [19; -B. 27]. Shu o'rinda diskurs psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslikning bir nuqtada kesishishini taqozo etadi.

XX asrning 90- yillari o'talariga kelib ushbu yo'nalishda bir qator diqqatga sazovor ishlar paydo bo'ldi (Altunyan, Proskuryakov, E. Sheygal, V.Deyk kabi olimlar). Aynan

mana shu tadqiqotlar siyosiy lingvistikaning keyingi taraqqiyotida katta o'zgarishlarni olib keldi. 2003-yili bu fan bo'yicha rus tilidagi ilk qo'llanma – A.P.Chudinovning “Siyosiy lingvistika” kitobi yozilgan. Bundan keyin E.V.Budayev boshchiligidagi hammualliflar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma [20; -B.252] ishlab chiqildi. Siyosiy lingvistika bo'yicha mavjud ilmiy ishlar orasida E.I.Sheygalning “Siyosiy diskurs semiotikasi” nomli dissertatsiyasi muhim o'ringa ega hisoblanadi[21].

Xulosa. Yuqoridagi mulohazalarda xulosa qilgan holatda siyosiy diskursda siyosiy ritorika ham muhim o'ringa ega ekanligini ta'kidlash o'rinli. Siyosiy ritorika siyosiy diskursda insonning siyosiy notiqlik ko'nikmasi orqali namoyon bo'ladi. Siyosiy nutqni ritorik tadqiq etish sohasida ritorik nutqning namoyon bo'lishi (nutq agressivligi, tilning ijtimoiy tabaqalanishi), yetakchilarning ritorik portretlari, siyosiy nutqning ritorik xususiyatlari (siyosatchi nutqi, obrazi, siyosiy faoliyatdagi ritorik strategiyalari) kabi muammolar tahlil qilinadi [21]. M.Eshanova fikricha: “Siyosiy diskurs siyosiy faoliyat jarayonida muloqot, intervyu, ma'ruza, rasmiy holatlardagi muloqot shakllarida amalga oshiriladi” [16; -B.14]. Shu jihatlarga asoslanadigan bo'lsak siyosiy notiqlik ham siyosiy diskursda muhim o'ringa ega. Negaki, siyosiy diskursda yetakchining notiqlik siyosiy tafakkur madaniyati shakllanadi, rivojlanadi. Siyosiy nutqning ta'rifiga bir qancha lingvistik adabiyotlarda o'ziga xos tarzda izohlar berib o'tilgan. Jumladan, N.Koxtev “Основы ораторской речи” kitobida: “ijtimoiy-siyosiy notiqlikka ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-iqtisodiy, sotsial-madaniy, ijtimoiy-maishiy mavzudagi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot masalalariga bag'ishlangan nutqlar, yig'ilish, konferensiya, qurultoylardagi ma'ruzalar, diplomatik, siyosiy, harbiy-vatanparvarlik, miting, targ'ibot va parlament nutqlari kiradi” [23; -c.93]– deya yozsa, yana bir tilshunos G.Apresyan “Ораторское искусство” asarida ijtimoiy-siyosiy notiqlikning ko'rinish shakllari sifatida ijtimoiy-siyosiy va siyosiy-iqtisodiy mavzulardagi ma'ruza, yig'ilishlardagi hisobot, siyosiy nutq, diplomatik nutq, harbiy-vatanparvarlik nutqi, siyosiy tahlil, miting nutqlarini keltirib o'tadi [24].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2012.;
2. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. –Toshkent: Fan, 2013.
3. Кўчимов Ш.Н. Юридик тил назарияси ва амалиёти. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети. –Тошкент: 2013. – б 32.
4. Борисова Е.Г. Политическая лингвистика или лингвополитология? Политическая лингвистика: проблематика, методология, аспекты исследования и перспективы развития научного направления: материалы междунар. науч. конф. (Екатеринбург, 27.11.2015) –с 29.
5. Темнова Е.В. Современные подходы к изучению дискурса // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. - М.: МАКС Пресс, 2004. С.32
6. Harris Z.S. Discourse Analysis: Reprints. «Papers on Formal Linguistics». – The Hague, 1952. – P.16.
7. Жеребило Т. В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр.и доп. – Назрань: ООО “Пилигрим”, 2010. – 94 с.
8. Дейк Т.А. ван. Язык, познание, коммуникация. - М.: Прогресс, 1989. -С. 372.

9. Ван Дейк Т.А. Дискурс и власть: Репрезентация доминирования в языке и коммуникации. Пер. с англ. — М.: Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2013. — С. 20
10. Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека. — М.: “Языки русской культуры”, 1999. — 896 с.
11. Pragmalingvistika. O‘quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi: A.Pardayev. — Samarqand. — b.131
12. Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа кискача изохли луғат. —Тошкент, Шарк, -b.126
13. Тоирова Г. Прагмалингвистика. Ўқув луғати. — Тошкент: Akademnashr, 2016. — b.9.
14. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: Bookmany print, 2024. —B.21.
15. Карасик В.И. Этнокультурные типы институционального дискурса. <https://cyberleninka.ru/ticle/n/-etnokulturnye-tipy-institutsionalnogo-diskursa/viewer>
16. Эшанова М. Сиёсий лингвистиканинг фалсафий асослари. -Т.: “Akademiya”. 2013. —б. 14.
17. Анна У. Стилистические и лингво-прагматические характеристики публичной речи политических лидеров россии конца XX и начала XXI веков, diss. канд. филол. наук. — М.: 2019. — с.26
18. Pardayev A.B. O‘zbek tili yordamchi so‘z turkumlarining lisoniy tizimdagi o‘rni va lingvopragmatikasi —Toshkent:2017.—26 b
19. Rasulov Z.I. Nutqiy tuzilmalar axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi jarayonida tejamkorlik tamoyilining faollashuvi (ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida). Filol.fanlari dokt.dissertatsiyasi. — Vuxoro, 2022. —27b.
20. Будаев Э.В., Ворошилова М.Б., Дзюба Е.В., Красильникова Н.А.; отв. ред. А.П.Чудинов; Современная политическая лингвистика : учебное пособие / Урал. гос. пед. ун-т. — Екатеринбург, 2011. — 252 с.
21. Шейгал Е. И.. Семиотика политического дискурса . Дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 10.02.19 - М.: РГБ, 2005 (Из фондов Российской Государственной Библиотеки, [Электронный ресурс]) Полный текст: <http://diss.rsl.ru/diss/02/0004/020004014.pdf>.
22. Репина Е.А. Политический текст как средство речевого воздействия,-с.24. <http://www.psyh-portret.ru>
23. Кохтев Н.Н. Основы ораторской речи [Электронный ресурс]: учеб. Пособие, — 2-е изд., стер. — М: ФЛИНТА, 2013. — с. 93. — 328 с.
24. Апресян Г. З. Ораторское искусство. —М.: Изд-во Моск. ун-та, 1978. —с 83. - 280 с.